

"HAKIM VA AJAL" DOSTONINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
Shokirova Mohinur Shokir qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostoni tahlil qilinadi. Asarda Ibn Sino haqidagi xalq rivoyatlarining syujet qurilishidagi o‘rni, ularning badiiy qayta ishlanishi hamda folklorizmning namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, dostonda Ibn Sino obrazi, ilm-ma’rifat g‘oyasi va asarning badiiy-falsafiy mazmuni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: zakiy, afsona, hakim, hasad, ajal, hasad motivi, Ibn Sino, rivoyat, Malika, Mirzo, afsonaviy Ibn Sino, tubanlik, buyuklik, iblis qiyofasi, ramz, konflikt, g‘oya va mazmun.

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri sifatida she’riyat bilan bir qatorda dostonchilik janrida ham salmoqli ijod qilgan. Shoir turli yillarda yaratgan dostonlarida inson taqdiri, hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, vatanparvarlik, ma’naviyat hamda tarixiy xotira kabi dolzarb mavzularni badiiy talqin etgan. Uning “*Jannatga yo‘l*”, “*Hakim va ajal*”, “*Ranjkom*”, “*Istiqlol manzaralari*” kabi dostonlari mazmunan rang-barangligi, falsafiy mushohadalarga boyligi hamda yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgani bilan ajralib turadi.

Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostoni o‘zbek adabiyotida folklor an’analari va yozma adabiyotning badiiy uyg‘unlashuvini namoyon etuvchi muhim asarlardan biridir. Doston markazida buyuk mutafakkir va tabib Abu Ali ibn Sino obrazi turadi. Shoir ushbu obraz orqali ilm-ma’rifatning qudrati, insonparvarlik, ezgulik va umrning mazmuni kabi falsafiy masalalarni yoritadi. Asarning syujet qurilishida xalq orasida keng tarqalgan Ibn Sino haqidagi rivoyatlar muhim o‘rin egallaydi.

Dostonning asosiy manbalaridan biri “*Ibn Sino va kitoblar*” rivoyatidir. Mazkur rivoyatda Ibn Sino Buxoro xonini davolab, buning evaziga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Keyinchalik hasadgo‘y kishilar kutubxonani yoqib yuboradilar. Abdulla Oripov ushbu voqeani badiiy jihatdan qayta ishlab, unga yangi mazmun yuklaydi. Dostonda Ibn Sino Buxoro podshohining qizi – malikani davolash uchun saroyga keladi. Uning bilimdonligi va tabiblik mahorati tufayli malika sog‘ayadi. Shundan so‘ng Ibn Sinoga saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Kutubxona asarda ilm-fan, ma’rifat va inson tafakkurining ramzi sifatida tasvirlanadi. Mirzo obrazining hasadi natijasida kutubxonaning yoqib yuborilishi esa jaholat va nodonlikning ilmga qarshi kurashini ifodalaydi. Doston syujetida “*Zahri qotil*” rivoyatining motivlari ham muhim o‘rin tutadi. Rivoyatda Ibn Sino hech kim

bilan gaplashmaydigan, ovqat yemaydigan va tushkun holatdagi malikani davolaydi. Shoir ushbu voqeani asarga kiritish orqali Ibn Sinoning nafaqat tabib, balki inson ruhiyatining chuqur bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Malikaning ruhiy tushkunlikdan qutulishi va hayotga qiziqishining qayta tiklanishi Ibn Sinoning bilim va donishmandligi natijasi sifatida talqin qilinadi. Asarda Mirzo obrazi ham alohida ahamiyatga ega. U mansabparastlik, hasad va shaxsiy manfaat timsoli sifatida gavalantirilgan. Mirzo malikaga erishish istagida bo'lib, Ibn Sinoning saroydagi obro'si ortib borayotganini ko'rib, unga nisbatan adovat saqlaydi. Natijada u kutubxonaga o't qo'yadi. Ushbu voqea orqali muallif ilm va ma'rifatga qarshi bo'lgan kuchlar har doim mavjud bo'lishini, biroq ular haqiqiy ilmning qadrini pasaytira olmasligini ta'kidlaydi. Dostonning eng muhim jihatlaridan biri unda hayot va o'lim masalasining falsafiy talqin qilinishidir. Ibn Sino umr bo'yi insoniyat manfaatiga xizmat qilgan, kasalliklarga qarshi kurashgan buyuk hakim sifatida tasvirlanadi. Biroq u ham ajal oldida o'zidir. Shoir shu orqali inson qanchalik buyuk bo'lmasin, tabiat qonunlari oldida teng ekanligini ko'rsatadi. Asarda ajal obrazi ramziy ma'noga ega bo'lib, u inson umrining nihoyasini eslatuvchi badiiy timsol vazifasini bajaradi.

"Hakim va ajal" dostoni xalq rivoyatlari asosida yaratilgan bo'lsa-da, unda Abdulla Oripovning o'ziga xos badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari va ijodiy mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir rivoyatlardagi voqealarni qayta ishlab, ularga chuqur ma'naviy va falsafiy mazmun yuklagan. Natijada asar ilm-ma'rifatni ulug'lovchi, insonni ezgulikka chorlovchi yuksak badiiy doston sifatida o'zbek adabiyotidan munosib o'rin egallagan.

Abdulla Oripov dostonlarida hayot haqiqati chuqur va ta'sirchan tasvirlanadi. Shoir jamiyatda uchraydigan turli illatlar, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar va ma'naviy muammolarni ochib berishda ramziy obrazlar, majozlar, folklor motivlari hamda tarixiy shaxslar timsolidan unumli foydalanadi. Natijada uning dostonlari nafaqat badiiy, balki ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'ladi.

Doston — liro-epik turdagi badiiy asar. U o'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang bo'lgan dostonlar nazmda bo'ladi, bunda nasr voqealarni bog'lovchi vazifasini o'taydi. Yozma adabiyotdagi dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir. Doston, asosan, uch: lirik doston, epik doston, dramatik doston turlariga bo'linadi. Bulardan tashqari lirik va epik xususiyatlarning birikuvidan tashkil topgan liro-epik doston turi ham mavjud.

"Hakim va ajal" dostoni g'oyasini ifodalashda uzoq o'tmish mavzusidan o'rinli foydalangan. Jahon tibbiyot ishining buyuk daholaridan biri Abu Ali ibn Sino haqida

yozilgan bu dostonda umuman inson hayotiga taalluqli va abadiy dolzarb muammolar ko'tarilgan. Asarda hayot va inson, ilm va o'lim, olijanoblik va hasadgo'ylik haqidagi hikmatli fikrlar badiiy tarzda gavalantirilgan. "Hakim va ajal" dostoni Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga bag'ishlab yozilgan. Unda Hakim, Malika, Mirzo timsollari berilgan.

Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni folklor va yozma adabiyotning o'zaro uyg'unlashuvi asosida yaratilgan yuksak badiiy asarlardan biridir. Asar syujetining shakllanishida buyuk tabib Abu Ali ibn Sino haqidagi xalq rivoyatlari muhim manba vazifasini bajargan. Shoir xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan rivoyatlarni aynan takrorlamay, ularni badiiy qayta ishlab, yangi mazmun va estetik talqin bilan boyitgan. Shu sababli doston folklorizmning sintezlashgan ko'rinishini namoyon etuvchi asar sifatida e'tiborga loyiqdir.

Dostonning syujet asosini Ibn Sino haqidagi bir necha xalq rivoyatlari tashkil etadi. Jumladan, "Ibn Sino va kitoblar" rivoyatida allomaning Buxoro xonini davolagani, buning evaziga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgani hamda hasadgo'y kishilar tomonidan kutubxonaning yoqib yuborilgani hikoya qilinadi.

Abdulla Oripov ushbu rivoyatning asosiy mazmunini saqlagan holda, voqealarni yangi badiiy talqinda aks ettiradi. Dostonda, Ibn Sino Buxoro podshohining betob qizini davolash uchun saroyga keladi va o'zining bilim hamda zakovati bilan malikaning ishonchini qozonadi. Natijada unga saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Biroq malikaning Ibn Sinoga bo'lgan hurmati va yaqinligi Mirzoning hasadini qo'zg'atadi. Aynan shu rashk va hasad tufayli saroy kutubxonasi yondirib yuboriladi. Bu voqea ilm-ma'rifatga qarshi jaholatning ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, doston syujetida "Zahri qotil" rivoyatining ayrim unsurlari ham o'z aksini topgan. Mazkur rivoyatda Ibn Sino hech kim bilan muloqot qilmaydigan, hayotga qiziqishi so'ngan malika ruhiyatini davolaydi. Shoir ushbu motivdan ham samarali foydalanib, malika obrazining ruhiy holatini tasvirlash orqali Ibn Sinoning nafaqat mohir tabib, balki inson qalbining nozik bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Natijada xalq rivoyatlaridagi voqealar va motivlar yangi badiiy mazmun kasb etib, doston g'oyasining yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi.

"Ibn Sino va giyohlar" nomli rivoyatda yonar gul va uning xususiyatlari haqida hikoya qilinadi. Unda Ibn Sinoning cho'ponni ilon zahri bilan davolashi, shu tufayli unga boshqa tabiblarning hasad qilishi va hakimni o'ldirishga chog'lanishi voqealari haqidagi rivoyat mazmuni doston mazmuni bilan birlashtirilgan.

Jonlantirish: Abdulla Oripov - dostonlarida yana bir tasviriy ifoda vositasi bo'lmish jonlantirish san'ati ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Jonlantirish tasviriy vositalarning qadimgi turlaridan bo'lib, og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o'ziga xos o'rin tutadi. U, ayniqsa, badiiy tasvirning jonli,

ta'sirchan, yorqin va obrazli ifodasini ta'minlovchi omillardandir. Jonlantirishni xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak, rivoyat, masal va dostonlarda ko'plab uchratish mumkin. Jonlantirish san'ati mumtoz adabiyotimizda "tashxis", "intoq" nomlari bilan yuritilgan. Ushbu san'atning noyob durdonalari, ma'naviy qadriyatlarimizdan sanalmish adabiy merosimizda o'ziga xos aksini topgan. Ma'lumki, jonlantirish metofoining maxsus turi bo'lib, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'usi predmetlarga ko'chiriladi. Boshqacha aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirishdir.

A. Oripovning "Hakim va ajal" dostonida jonlantirishning o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

*Bir narsada tanti erur doim tabiat,
Idrok bersa qaramagay usti-boshingga. .
Neca-necha saroylardan hatlab o'tgan baxt,
Nogahoniy Humoy bo'lib kelar qoshingga.*

Bu o'rinda esa jonlantirish san'ati qo'llanilgan. Bu yerda shoir "tanti erur doim tabiat" deya insonlarga xos harakat tabiatga ko'chirilib, mavhum tushuncha baxtga "hatlab o'tgan" esa xuddi jonli mavjudot misoli tasvirlanadi. Bu kabi go'zal jonlantirish ifodadagi obrazlilikni ta'minlaydi, ta'sirchanlik va hayratni oshirib, e'tiborni tortadi. Quyidagi parchalarda insonga xos fazilat "vafo qilmoqlik", umrga

ko'chirilib jonlantirilishi va uning asar personaji hayoti bilan bog'liq holati diqqatimizni tortadi.

*Agar umr vafo qilsa, izn etsa zamon,
Afshonaga ketajakman qalandar bo'lib.*

kabi ifodalarda jonlantirish hodisasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ushbu ifodada ijodkor jonlantirishning go'zal namunasi yaratgan. Bunda insonga xos bo'lgan ruhiy holat, kishilarga xos xususiyat, ya'ni o'ta xursand bo'lib quvonib ketish, o'ziga sig'maslik, surur olam, ya'ni borliqqa ko'chirilib, satrlararo ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Dostonning estetik qimmatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

*Qirq kun zafar nashidasin sursin Samarqand,
Yetti iqlim to'y o'tkazsin biz bilan birga.*

Dostondagi Samarqand atoqli otining jonlantirilishi epik qahramonning ruhiyatini aks ettiradi. Jonlantirishdagi izchillik go'zal manzara yaratish bilan obrazlilikni ta'minlaydi. Liro-epik qahramon ruhiy holatini tabiat bilan uyg'unlashtiradi, uning xayolot dunyosi chegara bilmasligiga ishora qiladi.

*Siz tunlari uxlagaysiz oyoq uzatib,
Shohni esa tergab chiqar uyg'oq vijdoni.*

Ushbu satrda ham jonlantirish hodisasini kuzatish mumkin. Bu yerda insonga xos xususiyatlarning “uyg’oq”lik yurakka ko‘chirilishi bilan mazkur nutq hodisasi yuzaga chiqadi. Ushbu jonlantirish kuchli hayratni ifodalaydi.

*Ana, ikki Mirzo bilan keldi Malika,
Bamisoli qo’sh yulduzniyetaklagan oy.*

Bu yerda insonga xos xususiyatlar tabiat hodisalariga ko‘chiriladi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan mustaqillik davri yozma dostonlarida bunday jonlantirishlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ularning har biri o‘z talqini, jilosi va g‘oyasiga ega. Ular o‘ziga xos usullarda badiiy asar ta’sirchanlagini oshiradi va obrazlilikni ta’minlaydi. Xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ijodkorlar birgina dostonda o‘nlab shunday san’atning betakror namunalaridan unumli foydalana olganlar.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostoni Ibn Sino haqidagi xalq rivoyatlari asosida yaratilgan bo‘lib, unda folklor va yozma adabiyot an’analari o‘zaro uyg‘unlashgan. Shoir rivoyatlardagi voqealarni badiiy qayta ishlab, ilm-ma’rifatning ahamiyati, insoniy fazilatlar va hayotning falsafiy mazmunini yorqin tasvirlay olgan. Asar orqali Ibn Sino obrazi donishmandlik va ezgulik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan doston o‘zbek adabiyotining g‘oyaviy-badiiy jihatdan qimmatli namunalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimova D. Yangi o'zbek doston (poema)larida davr va shaxs fojeasining poetik talqini (Oybek, Mirtemir, S. Zunnunova, Zulfiya, E. Vohidov, A. Oripov dostonlari misolida): Filol. fan. fals. dokt... diss. – Toshkent, 2020
2. Abdulla Oripov. "Tanlangan asarlar". Birinchi jild. T., 2000.-B.371.
3. 2 Abdulla Oripov. "Tanlangan asarlar". Birinchi jild. T., 2000.-B.387
4. Abdulla Oripov. "Tanlangan asarlar". Ikkinchi jild.T.,2001.-B.472
5. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. –T.: "Universitet", 2005.